



ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>

HISTORICAL DEVELOPMENT OF THE EDUCATION SYSTEM IN THE SURKHANDARYA REGION AND THE FORMATION OF PROCESSES OF NATIONAL IDENTITY AWARENESS

Mukhriddin Sa'dullayevich Bozorov

Independent Researcher

Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

E-mail: muhriddin.bozorov@gmail.com

Denov, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: national identity awareness, Surkhandarya region, education system, cultural identification, historical consciousness, national values, ethnocultural heritage, pedagogical approaches, spiritual education, cultural heritage.

Abstract: This scientific article is devoted to studying the essence, specific features and prospects of the processes of national identity awareness through the education system in Surkhandarya region. The article analyzes the ways of harmonizing national values and global outlook in educational institutions, taking into account the historical, geographical, cultural and ethnodemographic aspects of the region. The results of the study show that an integrated approach designed to develop national identity awareness at all stages of education in Surkhandarya region gives effective results. The article uses scientific and analytical methods and analyzes the results of surveys and observations conducted in educational institutions in different districts of the region.

Received: 19.04.26

Accepted: 20.04.26

Published: 21.04.26

SURXONDARYO VILOYATIDA TA'LIM TIZIMINING TARIXIY RIVOJLANISHI VA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH JARAYONLARINING SHAKLLANISHI

Muxriddin Sa'dullayevich Bozorov

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: muhriddin.bozorov@gmail.com

Denov, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: milliy o'zlikni anglash, Surxondaryo viloyati, ta'lim tizimi, madaniy

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola Surxondaryo viloyatida ta'lim tizimi orqali

identifikatsiya, tarixiy ong, milliy qadriyatlar, etnomadaniy meros, pedagogik yondashuvlar, ma'naviy tarbiya, madaniy meros.

milliy o'zlikni anglash jarayonlarining mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari va istiqbollari o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada viloyatning tarixiy, geografik, madaniy va etnodemografik jihatlarini hisobga olgan holda, ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlar va global dunyoqarashni uyg'unlashtirish yo'llari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Surxondaryo viloyatida ta'limning barcha bosqichlarida milliy o'zlikni anglashni rivojlantirish uchun mo'ljallangan integratsiyalashgan yondashuv samarali natijalar beradi. Maqolada ilmiy-tahliliy metodlardan foydalanilgan bo'lib, viloyatning turli tumanlaridagi ta'lim muassasalarida olib borilgan so'rov va kuzatish natijalari tahlil qilingan.

ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ И ФОРМИРОВАНИЕ ПРОЦЕССОВ НАЦИОНАЛЬНОГО САМОСОЗНАНИЯ

Мухриддин Саъдуллаевич Бозоров

Независимый исследователь

Денауского института предпринимательства и педагогики

E-mail: muhriddin.bozorov@gmail.com

Денау, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: национальная идентичность, Сурхандарьинская область, система образования, культурная идентификация, историческое сознание, национальные ценности, этнокультурное наследие, педагогические подходы, духовное воспитание, культурное наследие.

Аннотация: Данная научная статья посвящена изучению сущности, специфики и перспектив процессов формирования национальной идентичности в системе образования Сурхандарьинской области. В статье анализируются пути гармонизации национальных ценностей и глобального мировоззрения в образовательных учреждениях с учетом историко-географических, культурно-этнодемографических аспектов региона. Результаты исследования показывают, что комплексный подход, направленный на развитие национальной идентичности на всех этапах образования в Сурхандарьинской области, дает эффективные результаты. В статье используются научно-аналитические

методы и анализируются результаты опросов и наблюдений, проведенных в образовательных учреждениях различных районов региона.

Kirish. XXI asr globallashuv sharoitida milliy o'zlikni anglash jarayonlari ayniqsa dolzarblik kasb etmoqda. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon milliy-ma'naviy qadriyatlar asosida yoshlarni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Surxondaryo viloyati mamlakatimizning janubiy qismida joylashgan bo'lib, uning o'ziga xos tarixiy merosi, etnomadaniy xilma-xilligi va strategik ahamiyati bilan mamlakatimizda alohida o'rin tutadi. Viloyatda milliy o'zlikni anglash jarayonlarini ta'lim tizimi orqali amalga oshirish muhim ijtimoiy-pedagogik muammo hisoblanadi.

Milliy o'zlikni anglash - bu shaxsning o'ziga xos milliy va madaniy identifikatsiyasini idrok etishi, milliylik hissini shakllantirishi va milliy qadriyatlar tizimini egallashi jarayonidir. Bu jarayon individual va kollektiv xususiyatga ega bo'lib, shaxsning o'z millatiga, uning tarixi, madaniyati, an'analari va qadriyatlariga nisbatan munosabatini shakllantiradi. Ta'lim tizimi bu jarayonda asosiy vositachi rolini o'ynaydi, chunki u tizimli, maqsadli va uzluksiz ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega.

Adabiyotlar sharhi. Surxondaryo viloyati O'zbekistonning eng qadimiy tarixiy mintaqalaridan biri hisoblanadi. Arxeologik topilmalar shuni ko'rsatadiki, bu hududda odamlar paleolit davridan beri yashab kelgan. Qadimgi Termiz shahri nafaqat mintaqaning, balki butun O'rta Osiyo madaniyatining muhim markazlaridan biri bo'lgan. Buddizm madaniyatining yirik markazi sifatida Termiz o'ziga xos madaniy merosni shakllantirgan [4].

Viloyatning etnodemografik tarkibi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, viloyat aholisining 80% dan ortig'i o'zbeklar, qolgan qismi tojiklar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, ruslar va boshqa millat vakillaridan iborat. Bu ko'p millatli tarkib viloyatda milliy o'zlikni anglash jarayonlariga o'ziga xos tamoyillar beradi.

Viloyatning geografik joylashuvi ham uning madaniy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan. Amudaryo bo'yida joylashganligi tufayli bu hudud qadimdan savdo va madaniyat yo'llarining chorrahasida bo'lgan. Boysun tumani esa YuNESKO tomonidan «Madaniy meros» ro'yxatiga kiritilgan noyob etnomadaniy hudud hisoblanadi[1].

Surxondaryo viloyatida «Ma'naviyat va ma'rifat», «Vatan tuyg'usi», «Milliy g'urur» kabi fanlarni o'qitishda mintaqaning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinadi. O'quv dasturlariga viloyatning tarixiy shaxslari (Hakim at-Termiziy, Al-Xorazmiy, Abu Iso at-Termiziy va

boshqalar), madaniy merosi (Termiz arxeologik kompleksi, Jarqo'rgon budda ibodatxonasi, Boysun qishlog'i) haqida materiallar kiritilgan.

Viloyat ta'lim muassasalarida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha maxusi kurslar va dasturlar ishlab chiqilgan:

«Surxondaryo - madaniyatlar chorrahasi»

«Termiz allomalari»

«Boysun - madaniy meros olami»

Bu dasturlar nafaqat nazariy bilim berishga, balki amaliy mashg'ulotlar, ekskursiyalar, muzey darslari orqali bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan[2].

Tadqiqot metodologiyasi. Surxondaryo viloyatida ta'lim tizimining tarixiy rivojlanishi va milliy o'zlikni anglash jarayonlarining shakllanishi masalasiga bag'ishlangan mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning analiz, sintez, analogik tahlil kabi metodlaridan samarali foydalanildi.

Muhokama va natijalar. Viloyat ta'lim muassasalarida mahalliy tarix va madaniyatni o'rganishga alohida e'tibor qaratiladi. Termiz, Boysun, Denov, Sherobod, Uzun va boshqa tumanlardagi maktablarda «Mahalliy tarix», «Etnografiya», «Xalq hunarmandchiligi» kabi ixtiyoriy fanlar va to'garaklar faoliyat ko'rsatmoqda. Viloyat muzeylari, tarixiy yodgorliklari bilan yaqindan hamkorlik o'rnatilgan.

O'quvchilar Termiz davlat universiteti arxeologiya muzeyi, Termiz arxeologiya muzeyi, Boysun etnografiya muzeyi va viloyatning boshqa madaniy markazlariga tez-tez tashrif buyurishadi. Bu tashriflar nafaqat bilimlarni boyitishga, balki yoshlarda milliy g'urur hissini uyg'otishga xizmat qiladi[3].

Surxondaryo viloyatida o'zbek tilining davlat tili sifatida o'qitilishi bilan birga, mahalliy aholining ko'p millatli tarkibi hisobga olinib, rus, tojik, turkman tillariga ham e'tibor beriladi. Viloyatning ayrim hududlarida (masalan, Boysun, Denov tumanlarida) tojik tilida so'zlashuvchi aholi ko'p bo'lganligi sababli, bu tumanlarda ikki tilli ta'lim tizimi joriy etilgan.

Ta'lim muassasalarida tillararo muloqotga oid tadbirlar, she'riyat kechalari, adabiy-madaniy dasturlar tashkil etiladi. Bu yondashuv milliy o'zlikni anglash jarayonida tilning rolini chuqurroq anglashga yordam beradi, shu bilan birga millatlararo totuvlik va o'zaro hurmatni mustahkamlaydi[4].

Surxondaryo viloyati maktablarida milliy bayramlar, an'analar, xalq og'zaki ijodi namunalari keng o'rin olgan. «Navro'z», «Mustaqillik», «Konstitutsiya kuni» kabi bayramlar mahalliy an'analar bilan uyg'unlashib o'tkaziladi. Viloyatning turli mintaqalarida (Boysun, Sherobod, Uzun) etnomadaniy an'analarning saqlanib qolganligi bu jarayonni boyitadi.

Ta'lim muassasalarida quyidagi an'analar muntazam ravishda o'tkaziladi:

«Surxondaryo san'ati» festivali

«Termiz allomalari» o'quv-madaniy marosimi

«Boysun bahori» etnomadaniy ko'rgazmasi

«Amudaryo sohillarida» she'riyat kechalari[5].

Termiz davlat universiteti va viloyat pedagogika kollejlari o'qituvchilarni milliy-ma'naviy tarbiya metodikasi bo'yicha tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchilarning malakasini oshirish kurslarida mintaqaning madaniy xususiyatlari hisobga olinadi. Viloyat ta'lim boshqarmasi tomonidan har yili «Milliy o'zlikni anglash: metodika va amaliyot» mavzusida respublika va viloyat ilmiy-amaliy konferensiyalari o'tkaziladi[6].

Surxondaryo viloyatida milliy o'zlikni anglash jarayonlarida oilaning roli katta hisoblanadi. Ta'lim muassasalarida «Oila va maktab», «Milliy tarbiyada ota-onalarning roli» kabi mavzularda muntazam ravishda ota-onalar majlislari o'tkaziladi. Viloyatning qishloq hududlarida an'analar kuchli saqlanganligi sababli, bu an'analarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish nisbatan oson kechmoqda[7].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Surxondaryo viloyatida ta'lim tizimi orqali milliy o'zlikni anglash jarayonlari quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda:

1. Tarixiy ongni shakllantirish - viloyatning boy tarixiy merosini o'rganish orqali yoshlarda tarixiy davomiylilik va milliy o'ziga xoslikni anglash

2. Madaniy identifikatsiya - an'analar, urf-odatlar, hunarmandchilikni o'zlashtirish orqali madaniy merosni saqlash va rivojlantirish

3. Vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish - mintaqaning geografik va strategik ahamiyatini anglash orqali Vatanga muhabbat hissini kuchaytirish

4. Milliy qadriyatlar tizimini shakllantirish - ma'naviy-axloqiy me'yorlarni egallash, milliy fazilatlarini rivojlantirish

5. Til va adabiyot orqali identifikatsiya - milliy tilni mukammal egallash, adabiy merosni o'rganish[9].

Xulosa. Surxondaryo viloyatida ta'lim tizimining tarixiy rivojlanishi va milliy o'zlikni anglash jarayonlarining shakllanishi uzoq va murakkab tarixiy jarayonlar bilan uzviy bog'liqdir. Hududda ta'lim tizimi dastlab an'anaviy diniy-ma'rifiy maktablar shaklida rivojlangan bo'lib, keyinchalik sovet davrida markazlashgan davlat ta'lim tizimi doirasida kengaytirildi va institutsional jihatdan mustahkamlandi. Mustaqillik yillarida esa ta'lim sohasida tub islohotlar amalga oshirilib, milliy qadriyatlar, tarixiy meros va madaniy o'zlikni anglashga yo'naltirilgan

yangi pedagogik yondashuvlar shakllandi. Bu jarayon Surxondaryo aholisi, ayniqsa yoshlar ongida milliy identitetni mustahkamlashga xizmat qildi. Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimi nafaqat bilim berish vositasi, balki milliy o'zlikni shakllantiruvchi muhim ijtimoiy institut sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Shu bois, viloyatda ta'lim sifatini yanada oshirish, tarixiy-madaniy merosni o'quv jarayoniga kengroq integratsiya qilish hamda yoshlar orasida milliy g'urur va tarixiy xotirani mustahkamlash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. – Toshkent, 2022.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
4. G'ofurov D. Boysun - madaniyat olami. – Termiz: Surxondaryo, 2019.
5. Qurbonov M.M. Ta'lim tizimida milliy qadriyatlar: O'zbekiston tajribasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
6. Rasulov T.R. Milliy o'zlikni anglash: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2019.
7. Saidov A.S. Etnomadaniy meros va ta'lim. – Toshkent: Sharq, 2018.
8. Xodjaev B.X. Surxondaryo viloyati tarixi. – Termiz: Surxon, 2015.
9. Yusupov O.Y. Pedagogik psixologiya asoslari. – Toshkent: Universitet, 2016.
10. Ziyodullaeva N.N. Maktabda milliy tarbiya. – Toshkent: Ma'naviyat, 2021.